



Dilobar ABDUXALILOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:dildoraabduxalilova@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

STUDY OF GOETHE-WORK IN UZBEKISTAN

Annotation

Today, literary relations, mutual relations between peoples and nations are developing day by day. Of course, such literary relations cannot be imagined without translations between nations and peoples. Western literature, in turn, did not leave its literary influence on Eastern literature. In particular, the best works of Goethe, Schiller, Brecht, and Lissing, the most famous representatives of German literature, have been translated many times into many languages, including Uzbek. In particular, the fact that the interest in studying Y.V. Goethe's work and his poems in world literature is increasing day by day, and the fact that new translations of his works and poems are being published shows that researches should be conducted on this topic. In this direction, it is important to analyze the achievements and shortcomings of the translations, highlight the importance of the achieved results, make suggestions for eliminating the mistakes made, and give various recommendations in this regard. Through this study, the state of study of Goethe's work in Uzbekistan will be investigated.

Key words: Goethe, poetry, literary studies, translation studies, translation, synonym, adequacy, equivalence.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ГЁТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Сегодня литературные связи, взаимоотношения между народами и нациями развиваются с каждым днем. Конечно, подобные литературные связи невозможно представить без переводов между нациями и народами. Западная литература, в свою очередь, не оставила своего литературного влияния на литературу восточную. В частности, лучшие произведения Гёте, Шиллера, Брехта и Лиссинга — самых известных представителей немецкой литературы — неоднократно переводились на многие языки, в том числе на узбекский. В частности, тот факт, что интерес к изучению творчества Гёте и его стихов в мировой литературе возрастает с каждым днем, а также то, что публикуются новые переводы его произведений и стихотворений, показывает, что исследования по этой теме необходимо проводить. В этом направлении важно проанализировать достижения и недостатки переводов, подчеркнуть важность достигнутых результатов, внести предложения по устранению допущенных ошибок и дать различные рекомендации по этому поводу. Благодаря этому исследованию будет изучено состояние изучения творчества Гёте в Узбекистане.

Ключевые слова: Гёте, поэзия, литературоведение, переводоведение, перевод, синоним, адекватность, эквивалентность.

GYOTE IJODINING O'ZBEKISTONDA O'RGANILISHI

Annotatsiya

Bugungi kunda adabiy aloqalar, xalqlar va millatlarning o'zaro munosabatlari kundan-kunga rivojlanmoqda. Bunday adabiy aloqalarini albatta millatlar va xalqlar o'rtasidagi tarjimalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. G'arb adabiyoti ham o'z navbatida sharq adabiyotiga o'zining adabiy tasirini o'tkazmasdan qolmagan. Jumladan, nemis adabiyotining eng mashhur namoyondalarini bo'lmish Gyote, Shiller, Brext, Lissinglarning eng yaxshi asarlari ko'pgina tillarga, shu jumladan o'zbek tiliga ham ko'p marotaba tarjima qilingan. Jumladan, Y.V.Gyotening ijodini va uning she'rлarini dunyo adabiyotshunosligida o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib borayotganligi va uning asarlari va she'rлarini yangi tarjimalari e'lon qilinayotganligi mazkur mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borilishi kerakligini ko'rsatadi. Bu yo'nalishda qilinayotgan tarjimalarning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, erishilgan natijalarning ahamiyatini yoritish hamda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish va bu borada turli xil tavsiyalarni keltirib o'tish ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot orqali aynan Gyotening ijodini O'zbekistonda o'rganilish holati tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Gyote, she'rriyat, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, tarjima, sinonim, adekvatlik, ekvivalentlik.

Kirish. Badiiy asarning qiymati nafaqat uning asliyat tilida, balki tarjima tilida ham qanchalik ta'sirchanligi bilan ham belgilanadi. Milliy adabiyotning boyishini o'zaro adabiy aloqalar va tarjimalarsiz tasavvur qilish imkonsiz. Buyuk so'z ustasi, prozada qanday bo'lsa, poeziyada ham xuddi shunday ijod qilgan Gyote o'zining boshqa asarlari orqali ham o'zbek kitobxonlari oilasiga kirib kela boshlaydi. Y.V.Gyote ijodi o'tgan asning 20-yillardan boshlab Cho'pon, Oybek, Shayxzoda va boshqa turli yozuvchi va shoirlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Adibning "Faust" tragediyasi taniqli ijodkor Erkin Voxidov tomonidan (rus tilida) 1972-75-yillar, 2007-yil esa Posho Ali Usmon tomonidan bevosita, "G'arbu sharq devoni" Sadreddin Salim

Buxoriy tomonidan 1985-90-yillar, 1975-yilda Gyotening „Yosh Verterning iztiroblari“ asari bilvosita emas, balki bevosita nemis tilidan Yanglish Egamova tomonidan tarjima qilinadi va G'ofur G'ulom nashriyotida chop etiladi. Ushbu asar orqali Gyote ijodining badiiyligi va mashxurligi ko'p marotaba talqin qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda esa shoirlarini tarjima qilishga bo'lgan ilk urinishlar Maqsud Shayxzoda tomonidan amalga oshiriladi. O'zbek kitobxonlarni "G'arbu sharq devoni" romanini o'qiy olganliklari uchun Maqsud Shayxzodadan minnatdor bo'lishlari kerak. Bu asarni tarjima qilishga bir qancha urinishlar bo'lib o'tgan. Lekin

ulardan eng adekvat tarjima deb Erkin Vohidovni tarjimasi desak xato bo'lmaydi.

Gyotening ijod xazinasi bitmas tunganmas ekanini alohida uqtirish o'rnlidir. Shu bois buyuk nemis shoirining asarlarini o'zbek kitobxonlariga to'la yetkazish borasida adiblarimiz, adabiyotshunoslarimiz, tarjimonlar oldida hali ulkan ishlar turibdi [8; 198].

Gyote ijodi bilan tanishish va uning rivojlanish bosqichi mamlakatimizning xalqaro adabiy aloqalarining rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda Gyotening birinchi she'ri XX asrning 30-yillarda tarjima qilinib, nashr etilgan bo'lsa ham, ammo uning tarjimalari faqatgina 50-yillarda paydo bo'la boshladи. O'zbek kitobxonlari Gyote ijodi bilan 1957 yildan boshlab tanishishdi. Ushbu yilda buyuk shoir o'limining 125 yilligi munosabati bilan respublikaning "O'zbekiston madaniyati" gazetasida buyuk o'zbek shoiri va ajoyib tarjimon Maqsud Shayxzodaning "Y.V.Gyote" nomli maqolasi nashr etildi. U o'z maqolasi orqali Gyote ijodining dolzarligi va mazmun-mohiyatini ta'kidladi. Bu maqolada ilk bor Gyotening "Traum" she'ri Shukrullo tomonidan tarjima qilinadi va o'zbek tilida "Umid" nomi ostida chop ettiriladi. Nemis tilidagi "Traum" so'zi omonim so'z bo'lib, o'zbek tilida ikki xil ma'no anglatadi:

1.umid

2.tush.

She'rnинг mazmunidan ko'rilib turibdiki, asliyat va tarjima tilidagi ma'nolari bir-biriga to'g'ri kelgan. Bu she'rda nafosat, tirishqoqlik hamda kelajakdagи hayotga umid va imyon o'z ifodasini topadi.

Ishonaman! Ro'yogba chiqar

Taskinlarining ketmay behuda

Umid bilan ekilgan tayoq

Mehnat, chidam natijasida

Bir kun berar mevayu yaproq

Sezgir shoir va tarjimon Maqsud Shayxzoda o'zining ushbu maqolasi orqali, shoirning hayot va ijod yo'llariga tavfsif beradi hamda "Gerz von Berlingen" dramasini, "Prometey" fojiasini va "Yosh Verterning iztiroblari" sentimental romanlarini mohiyati batafsil yoritib beradi[5; 38].

„Yosh Verterning iztiroblari“ romanining o'zbek tilidagi tarjimasi Gyote ijodining o'zbek adabiyotida o'rganilishida yangi sahifa ochdi. Asar badiiy va adabiy kechalarda iliq kutib olindi. Sh.Karimov, U.Satimov va M.Abduraxmonovlarning ushbu asar haqida ilmiy maqolalar paydo bo'ldi.

U.Sotimov o'zining „Ilk tarjima-ilk tajriba“ maqolasida bevosta tarjimaning bilvosita tarjimadan ustunlik tomonlarini ta'kidlab o'tadi. Yozuvchi, aniq misollar bilan tarjimaning muvafaqqiyatlarini ta'kidlab o'tadi. Mahoratlari tarjimon quyidagilarni ham eslatib o'tadi: "Tarjimada hamohanglikni, originallikni, ruhiy va hissiy holatni aks ettilish uchun tarjimon quvonch va baxt, qayg'u, o'ychanlik, nafrat va yurak og'rig'i kabi so'z, so'zbirkimlari, ironiyalar va allegoriyarni izlaydi." Tarjimon romanni o'zbek tilida katta mahorat va did bilan tarjima qiladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, tarjimada hech qanaqa ortiqcha qo'shib yubarishlar ham olib tashlashlar ham uchramagan. Muqobil tarjima – atamasi uchun ayanan mos keladigan tarjima bo'lgan.

1974- yilda "Guliston" jurnalining 8-sonida tarjimon – olim G'aybullha As-Salom o'zining "Hofiz va Gyote" nomli maqolasini chop ettirdi. Bu maqola orqali u o'zbek kitobxoniga Gyotening ochilmagan qirralarini ochib berdi. Ushbu maqolada Gyote va Xofiz Shirinining ijodidagi aloqalarini yoritib o'tgan. Gyote xuddi shunday aloqalarini boshqa xalq adabiyoti va san'ati bilan ham olib borgan. Bu haqida professor G'.Salomov shunday deb yozadi: Ajoyib faylasuf Gyote, hayratlanarli nemis va fors adabiyoti, moddiy va ma'naviy hayoti, hattoki forsiy va olmon xalqlari

tushunchasi nafaqat ikki turli xil millat, ikki adabiyot yoki umuman sharq va G'arb adabiyoti haqida gapiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Agar Gyote sharqqa hayolan sayohat qiladigan bo'lsa, yuqorida aytiganidek, unga sharq xalqlarining yod madaniyatini, urf-odatlarini, xalqning ruhiyatini tushunishida yordam bergan Xofiz Sheroyini o'ziga ustoz qilgan bo'lsa, Gyotening she'riy olamiga nemis tilini bilmaydigan o'quvchi shoir va tarjimon mahorati orqali kirib keladi. Aynan tarjimonning o'zi yo'lboshchiga aylanadi, ko'p millatli xalqlarni jahon madaniyati xazinasiga oshno etadi, yangi dunyoga yo'l ochib beradi hamda "boshqa olamga eshik" ochishga yordam beradi. (A.Feodorov)

Gyote o'z ijodkorlik faoliyati o'zining eng mashhur asari "Faust" orqali namoyon etadi. Ushbu asarning eng birinchi versiyasi Bo'ron va tazyiq davrida yaratilgan bo'lib, Gyotening hayot yillarda nashr ettirilmagan. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan so'ng uning qo'lyozma nusxalarini topiladi.

Faust insonning doimo ezzulik sari intilishi, baxt va muhabbat haqidagi yorqin orzulari haqidagi chuqur falsafiy ruhda yozilgan asar. Gyote ijodining eng mashhur namunasi hisoblanadi.

Faust tragediyasi rus tiliga ko'p marotaba tarjima qilingan. 1988 yilda Faust tragediyaning birinchi qismining birinchi tarjimasi shoir Huber tomindan tarjima qilinib, nashr ettiriladi. N.Vilmonte, I.Volkov, V.Gayman, N.Samarin tomonidan qilingan tarjimalar buyuk shoir merosining tadqiq etilishiga bo'lgan katta qiziqish va e'tiborni ko'rsatib beradi. Bundan tashqari ushbu tarjimalar jahon adabiyotining me'rosiga ham aylandi.

1975 yilda o'zbek kitobxonlari "Yosh Verterning iztiroblari" romanini o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. Muallif orginal va tarjima qismlari haqida ma'lumot olishdan oldin faqatgina ikki yoki uchta so'zni bilar edi xolos. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak "der Himmel" und "die Erde" so'zlarini o'zbek tilidagi "osmon" va "yer" so'zlariga ekvivalent hisoblanadi. Nemis tilidagi "der Himmel" und "die Erde" so'zlarini boshqacha tarjima qilib ham bo'lmaydi. Bunday taxminlar bilan Yakubov deyarli hamma joyda o'z xulosasini yakunlaydi. Ish jarayonida ko'p hollarda nemis tili va o'zbek tilidagi farqlar haqida gapiradi. Lekin ushbu tafovutlar uchun yechim hech qayerda ochib berilmaydi. Masalan: o'zbek tilida rod kategoriyasi mavjud emas, lekin ushbu kategoriya nemis va rus tillarida mavjud. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi so'zlarning joylashishi orginallik ruhiyati berilishimi chetlab o'tmaydi. Bundan tashqari nemis tilidagi artikel sistemasi o'zbek tilida mavjud emas. Ushbu tafovut ham tarjima bir qancha qiyinchiliklar olib keladi. Ayniqsa noaniq artikel qo'llash jarayonida bir qancha qiyinchilik va muammolar olib keladi. "da dir es wohl war wie einem Fisch im Wasser" o'zbek tilida esa „xuddi suvdagi baliqdek erkin yashardim“. Nemis tilidagi „der Fisch“ und „das Wasser“ so'zlarini mujskoy va sredniy rodda berilgan bo'lsa, rus tilida bu so'zlar jenskiy rodda ishlataladi. Ko'rib turganimizdek, yozuvchining G'oysi berilgan misollar orqali mustahkamlangan. Shuning uchun ham, frazeologik birlilik hisoblangan „wie einem Fisch im Wasser“ birligi so'zma-so'z mos kelmaydi. Tarjima esa, orginal matnga yaqin turgan va unda ushbu frazeologik birlikning o'zbek tilidagi to'liq ekvivalenti berilgan: „xuddi suvdagi baliqdek“.

Tahlil va natijalar. Gyotening qanchadan qancha she'rlari va asarlarini nemis tilidan bilvosita va bevosita tarjima uslubida ona tilimizga tarjima qilingan. Uning umri davomida yozilgan eng mashhur asari Faust hisoblanadi. Ushbu asar qanchadan-qancha chet tillariga tarjima qilinib o'sha millatlarning ham badiiy xazinasi boyishiga o'z hissasini qo'shgan. Xususan fransuz tiliga Faust asari 27 maratoba tarjima qilingan. Uning o'zbek tiliga bilvosita tarjimasi Erkin Vohidov tomonidan bevosita tarjimasi esa Poshali Usmon

tomonidan tarjima qilingan. Ikkala tarjimani solishtirganimizda Poshali Usmon tomonidan qilingan tarjima adekvat tarjima hisoblanadi. Chunki Erkin Vohidovning rus tili orqali qilingan tarjimasi Gyote ichki olamini yoritib berishga xalaqtган bergan.

Omonshunos va tarjimashunos 300 dan ortiq tarjimalar muallifi X.Raximov o‘zining Rus tarjimoni Boris Pasternak asliyat matnidagi Nacht (tun) quyidagicha tarjima qilgan:

„Habe nun ach! Philosophie,
Juristerei und Medizin,
leider auch Theologie
durchaus studiert
mit heißem Bemühen.
Da stehe ich nun, ich armer Tor,
und bin so klug als wie zuvor”.
Bunday tarjima qilgan:
Я богословьем овладел,
Над философией корпел,
Юриспруденцию долбил
И медицину изучил.
Однакоя при этом всем
Был и остался дураком.

O‘zbek tilidagi tarjimada esa sevimli shoirimiz Erkin Vohidov aynan shu ruscha variantini tanlab, uni quyidagicha o‘girgan.

Ilohiyot bilan band bo‘ldim,
Faylasufi xirarmand bo‘ldim.
O‘rgandim ilmi huquq, ilmi tabobat,
Va amin bo‘ldimki faqat,
faqat menga bir narsa ayon,
Nodon edim, nodonmn hamon.

Tarjimani ruscha varianti bilan qiyoslasak, mutarjima nafaqat asliyomonand, balki ruscha aslidan haam go‘zalroq bajargan. Biroq olmoncha (ya’ni Gyote) bilan qiyoslaganda o‘zbek tarjimoni ham rus tarjimonining xatosini takrorlashga majbur bo‘lgan. Natijada ruscha va o‘zbekchada komillikka intilib, o‘sha zamon fanlarini qaynoq ishtiyoq bilan o‘rgangan olim va mutafakkir inson obrazni buzilib, nodon odamga aylanib qolgan. Olmoncha matnda birinchi o‘rinda falsafa aytilda, ruscha va o‘zbekcha variantida birinchi o‘rinda ilohiyot kelgan. Asliyat tili mutaxasisi Poshali Usmon oxirgi qatordagi bu olmoncha so‘zni “men hamon g‘o‘r telba bechora” deb asliyatga to‘g‘ri tarjima qilgan[9; 6]

“G‘arb-u Sharq devoni” esa Maqsud Shayxzoda tomonidan bilvosita, Sadreddin Salimov tomonidan bevosita nemis tilidan ‘zbek tiliga tarjima qilingan. Sadreddin Salimov shu haqida quyidagi maqlolarni ham yozadi. Bular “G‘arbning sharqqa hijrati”, “G‘azalnavis nemis shoirlari”, “Gyote va Hofiz”, “Gyote va tasaffus” singari maqlolalaridir. Ushbu maqlolarni o‘qigan kitobxonda Gyote shaxsiya nisbatan tasavvur yanada tiniqlashgan va oshgan.

“Faust” tarjimasi milliy tarjima nazariyasi va amaliyotida yangi sahifa ochdi. Natijada keyingi davorda tarjimashunos olim Poshali Usmon o‘g‘li „Faust“ tragediyasining ozarbayjon, qozoq va rus tillaridagi tarjimalarning qiyosiy o‘rganish asosida ilk bor asar birinchi qismining asliyatdan o‘zbek tiliga filologik tarjimasini yaratdi.

Gyotoning bu asari va Erkin Vohidovning tarjimasi haqida yozuvchi H.G‘ulom, adabiyotshunoslar V.Zohidov, I.G‘afurov, K.Azizov, Sh.Karimov, tarjimashunoslar Poshali Usmon o‘g‘li, A.Allaberganova, S.Yoqubov, R.Abdullayev va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqotlarini yaratishdi. Lekin, shunga qaramay ayrim taqrizlarni istisno qilganda, necha o‘n yillarda mobaynida ushbu shox asarlar tarjimasi munosib darajada keng muhokama etilmay kelayotganligini ochiq aytishga to‘g‘ri keladi.[7; 46]

Gyote o‘zining bitmas-tuganmas xazinasi bilan nafaqat nemis adabiyotida, balki dunyo adabiyotida ham o‘zidan yorqin iz qoldirdi. Ana shunday badiiy xazinasi o‘rganish borasida o‘zbek adiblari, adabiyotshunoslari va tarjimonlarimiz oldida hali ham ulkan ishlar turibdi.

Xulosa va takliflar. Buyuk nemis shoiri Gyote ijodi shu jumladan, uning shox asari hisoblangan „Faust“ tragedyasi, „Yosh Verterning iztiroblari“, „G‘arbu Sharq devoni“, „Hamroz dillar“, „Rim elegiyalari“, „Nabotot evriliishi“, „Torkvatto Tasso“, „Ranglar haqidagi ta‘limot“, „Sehrli sibizg‘a“ kabi asarlari v auch mingdan ortiq she‘rlari orqali adabiyot ixlosmandlari qalbiga yo‘l topa oldi. Gyotening „Faust“ asari kabi buyuk asar jahon adabiyotida hali yaratilmagan. Chunki Gyote “Faust” asariga o‘zining butun umrini bag‘ishlagan. 1772 yilda yozila boshlangan dramatik doston 1831 yilda Gyote o‘limidan 6 oy avval yozib tugatilgan. Faust asarining bevosita Poshali Usmon tomonidan tarjimasidagi adekvatlilik Erkin Vohidov tomonidan qilingan bilvosita tarjimasidagiga qaraganda ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Allayorova R.R. (2008) Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Urganch.
2. Dolimov Z. (2009) Tarjima san`ati va muammolari. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Fedorov, A.V., (1968) Osnovi obshey teorii perevoda. - M.: Vissaya shkola.
4. Jabborov S.D. (1984) G‘arbu-sharq devoni. DcS diss. in phil. scien. Tashkent.
5. Raximov X. (2018) Tarjimachilik qay ahvolda. Zamonaviy leksikografiya, frazeografiya va tarjimashunoslik masalalari. Andijon.
6. Raximov X. (2023) G‘arbning Hirotida tugilgan shoir. Hurriyat gazetasi. Iyun soni. Toshkent.
7. Saidov A. (2018) O‘zbegimming Erkin o‘zbegi. “Akademiknashr”, Toshkent.
8. Saidov, A., (2020) Qiyosiy adabiyotshunoslilikka kirish. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.
9. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan. Toshkent, O‘qituvchi. 1965.